Anvar Eshmatov	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlari .....	1088
Ametova Nasiba Danilovna	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarning kreditlash amaliyotini takomillashtirish .....	1092
Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan .....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashev Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана .....	1116
Икромова Ханифа Одиловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarning huquqiy maqomi va ularni isloq qilishning istiqbollari....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi .....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития .....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati .....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish .....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilqatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах .....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities ....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
Kolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishing asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choraları .....	1181
Xamraulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayftidinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



# MAXSUS IQTISODIY ZONALAR INVESTITSIYA MUHITI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA TARIF VA NOTARIF MEXANIZMLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI



**Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li**  
PhD, Toshkent moliya instituti dots.nti v.b.

**Annotatsiya:** Maqolada maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozabadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. O'zbekistonda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi investitsion faollikning rivojlanish holati tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari asosida maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozabadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** maxsus iqtisodiy zona, investitsion muhit, investitsion faollik, eksport zonalari, imtiyozlar paketi, to'g'ridan to'g'ri investitsiya, yosh tadbirkorlik subyekti, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasasi, subvensiya.

**Abstract:** The article explores the possibilities of using specific and non-specific mechanisms to increase the attractiveness of the investment environment of special economic zones. The state of development of investment activity in youth industrial and entrepreneurship zones in Uzbekistan is analyzed. Based on the results of the research, proposals and recommendations on the use of specific and non-specific mechanisms to increase the attractiveness of the investment environment of special economic zones have been developed.

**Key words:** special economic zone, investment environment, investment activity, export zones, package of benefits, direct investment, young entrepreneur, youth industrial and entrepreneurship zone, subsidy.

**Аннотация:** В статье исследуются возможности использования специфических и неспецифических механизмов повышения привлекательности инвестиционной среды особых экономических зон. Проанализировано состояние развития инвестиционной деятельности в молодежных промышленных и предпринимательских зонах Узбекистана. По результатам исследования разработаны предложения и рекомендации по использованию конкретных и неспецифических механизмов повышения привлекательности инвестиционной среды особых экономических зон.

**Ключевые слова:** особая экономическая зона, инвестиционная среда, инвестиционная деятельность, экспортные зоны, пакет льгот, прямые инвестиции, молодой предприниматель, молодежная индустриально-предпринимательская зона, субсидия.

## KIRISH

Maxsus iqtisodiy zonalarning investitsion faolligini oshirishdagi tarif va notarif mexanizmlarning umumiy guruhanishidagi soliq va bojxona sohasidagi imtiyozlar ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Sababi, maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari yuqori qo'shilgan qo'yamatga ega, mahalliylashtirish dasturlari asosida va eksportga tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida mazkur sohalar orqali qo'llab-quvvatlashga muhtoj hisoblanadi.

Maxsus iqtisodiy zonalarning investitsion faolligiga soliq va boxjona imtiyozlarining ta'siridan ma'lum bo'la-diki, ushbu zonalarga kiritiladigan investitsiyalar hajmiga soliq va bojxona imtiyozlari bevosita ta'sir etadi. Ammo, oldingi bobda ta'kidlanganidek, O'zbekiston Pespublikasi Prezidentining 2020-yil 19-iyundagi PF-6011-sod Farmoni bilan barcha soliq va bojxona to'lovlaridan imtiyozlar muddatidan oldin bekor qilinishi investitsion faollikka jiddiy salbiy ta'sir etgan. Shuningdek, yangi qabul qilingan "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuning 39-bandida "to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga respublika budgetidan qoplab berilishi" va mazkur tartib Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ta'kidlangan. Ammo, mazkur tartib yangi tahrirdagi Soliq kodeksi normalariga zid degan salbiy xulosa sababli qabul qilinmasdan kelinmoqda. Shu sababli, mazkur qonunchilikdagi ziddiyatlarni bartaraf qilish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga berilgan soliq va bojxona to'lovlaridan imtiyozlarni tiklash normativ-huquqiy hujjalarga tegishli o'zgartirishlarni kiritish dolzarb ahamiyatga ega.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ko'pgina iqtisodchi olimlar maxsus iqtisodiy zonalar investitsion faolligiga davlatlarning xalqaro reytinglardagi o'rni sezilarli ta'siri qilishini ta'kidlaydi. Jumladan, A. Bárcena, L. López, M. Dirven, S. Malchik muallifligida chop etilgan "Foreign Investment in Latin America and the Caribbean" nomli ilmiy-tahlili qo'llanmada Lotin Amerikasi davlatlarining xalqaro reytinglardagi o'rni tahlil etilgan, ularning reytinglardagi pog'onasi mintaqada joylashgan erkin iqtisodiy zonalardagi xorijiy investitsiyalar oqimiga ko'rsatgan ta'siri baholangan. Qolaversa, mazkur mintqa hududida tashkil topgan offor zonalardagi noqonuniy daromadalarning keskin oshishi Lotin Amerikasi davlatlari (Argentina, Braziliya, Meksika) hududida faoliyat olib borayotgan maxsus iqtisodiy zonalarning investitsion faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi ta'kidlangan [1].

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan V. I. Baronov va G. M. Kostyunina tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarda [2] maxsus iqtisodiy zonalarning samarali faoliyatini ta'minlashning konseptual asoslari tadqiq etilgan. Unga ko'ra, maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning zamonaviy tundensiyalarini hisobga olib, quyidagi omillar ularning rivojlanishi va investitsion faolligini ta'minlashga bevosita ta'sir etadi: joylashuv joyi, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, fiskal, moliyaviy va ma'muriy "imtiyozlar paketi", ma'muriy tartib-taomillarning shaffofligi (shu jumladan, "yagona darcha" tamoyiligidan ish olib borish tizimi).

Maxsus iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalar jalb etishni o'rgangan respublikamiz olimlaridan professor J. Karimqulovning ilmiy ishlarda ushbu sanoat zonalarining investitsion faolligiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqilgan. Ushbu sanoat hududlarining investitsion faolligini oshirishda ularda beriladigan moliyaviy imtiyozlarni "vaqt omili" dan Hindiston tajribasidan kelib chiqib, "hudud omili" ga o'tkazish taklif etilgan [5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola doirasida ilmiy tadqiqotlarni olib borishda statistik kuzatuv, induksiya, deduksiya, tadqiqot obyekti bo'icha so'rovnomalar va dala tadqiqotlarini olib borish, verbal sharhlash kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, maqladagi statistik ma'lumotlarni tahlil etishda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi va uning hududiy boshqarmalari, Namangan viloyati, Davlatobod tumani hokimligining ma'lumotlaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Maxsus iqtisodiy zonalar o'zining tashkil etish va rivojlanish xususiyatiga ko'ra, muayyan imtiyozlardan foydalanishi nazarada tutadi. Bu borada maxsus iqtisodiy zonalardagi investitsion faollikni oshirish motivlarining ichida eng muhimlaridan, ya'ni ushbu hududlarning investitsion jozibadorligini ta'minlovchi – tarif va notarif mexanizmlar ularning investitsion faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ta'kidash kerakki, maxsus iqtisodiy zonalarning investitsion faolligini oshirishga qaratilgan tarif va notarif mexanizmlarning quyidagi jadvalda umumiylar tarzda ifodalash mumkin:

**1-jadval:** Maxsus iqtisodiy zonalarning investitsion faolligini oshirishdagi tarif va notarif mexanizmlarning umumiylar guruhlanishi [6]

Mexanizmlar	Dastaklar	Qo'llash sohasi	
		Import	Eksport
Tarif	Bojxona bojlari		+
	Tarif kvotasi	+	
Notarif	Miqdopiy	Kvotalash	+
		Litsenziyalash	+
		Ekspoptni ixtiyoriy cheklash	+
	Yashipin	Davlat xaridlari	+
		Mahalliy komponentlarni ushlab turish	+
		Texnik to'siqlar	+
		Soliqlar va yig'imlar	+
	Moliyaviy	Subsidiyalar	+
		Kreditlash	+
		Demping	+

Maxsus iqtisodiy zonalar, xususan yoshlар sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi investitsion faollikni oshirish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, jumladan tadqiqot ob'ekti sifatida tanlab olingan yoshlар sanoat va



tadbirkorlik zonasidagi ishtirokchilar, shu jumladan, mahalliy va xorijiy investorlar, mahalliy davlat boshqaruvi organlarining mazkur sohaga mas'ul vakillari bilan uchrashuvlar, suhabat-intervyular, so'rovnomalalar o'tkazilishi natijasida sanoat zonalarining faoliyatini tashkil etishdagi muammolar, bu borada ularning faoliyatiga bevosita va billosita ta'sir etuvchi omillar o'r ganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi investitsion faoliyikka ta'sir ko'rsatuvchi ichki omillar sirasiga: soliq, bojxona, valyuta rejimlarining amal qilishi, tadbirkorlar va investorlar qonuniy manfaatlарining himoyalanganligi, zonalarga davlatning ma'muriy aralashuvi darajasi, davlatning iqtisodiy rivojlanish holati (makroiqtisodiy vaziyat), korrpupsiya darajasi, adolatlilik va qonun ustuvorligi, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi kabilarni kiritish mumkin. Yuqoridaq omillar tahlili yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalalar va ulardan kelib chiqadigan xulosalar quyidagilardan iborat bo'ldi. Ya'ni, bugungi kunda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari ishtirokchilar tomonidan o'z mablag'lari hisobidan tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun yo'naltirayotgan investitsiyalar umumiylashtirish manbasining asosiy qismini tashkil etmoqda.

**2-jadval:** Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida amalga oshirilgan investitsion loyihalarning moliyalashtirish manbalari taqsimoti, (20.01.2022-y) [11]

Loyihalar holati	Umumiy qiymati, mlrd. so'm Oz mablag'lari, mlrd. so'm	Moliyalashtipish manbalapi							
		Jamag'armadan * kredit mablag'lari		Tijorat banklarining kredit mablag'alari		Xorijiy investitsiyalar, ming. doll.			
		Milliyl valyutada, mlrd. so'm	Xorijiy valyutada, ming. doll.	Milliyl valyutada, mlrd. so'm	Xorijiy valyutada, ming. doll.				
No	1	2	3	4	5	6	7	8	
1	Amalga oshirilgan	663,01	564,8	27,7	130,0	34,05	150,0	3 150	
2	Amalga oshirilayotgan	2 768,9	1 945,3	270,4	2 862	303,4	7 910	13 968	
3	Istiqbolli	2 360,5	1 370,06	601,03	15 571	93,1	12 383	0	
Jami		5 792,5	3 880,2	899,3	18 563	430,6	20 443	17 118	
Jami nisbatan, %			67	15,5		7,4			
Loyihalar holatiga nisbatan***									
4	Amalga oshirilgan		9,8	0,5	**	0,6	**	**	
5	Amalga oshirilayotgan		33,6	4,7	**	5,2	**	**	
6	Istiqbolli		23,7	10,4	**	1,6	**	**	


\* Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi.

\*\* Kredit mablag'alari xorijiy valyutada bo'lganligi sababli jami nisbatan ulushi milliy valyutada hisoblangan moliyalashtirish manbalarining jami ulushidan kelib chiqib hisoblanadi.

\*\*\* Loyihalar holati bo'yicha moliyalashtirish manbalari (milliy valyutada) kechimida jamiga nisbatan hisoblanib, ularning yig'indisi moliyalashtirish manbalari turlarining umumiylashtirishiga teng deb qaraladi. Ya'ni, 4+5+6 satrlar yig'indisi 3 ustunga teng bo'ladi.

Respublika bo'yicha yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan, istiqbolli loyihalar bo'yicha yosh tadbirkorlik sub'ektlarining o'z mablag'lari jami moliyalashtirish manbalari tarkibida 67 foizni tashkil etmoqda. Jamg'arma mablag'lari hisobidan to'g'ridan-to'g'ri berilgan milliy valyutadagi kredit mablag'lari esa 15,5 foiz, tijorat banklarining milliy valyutada berilgan kredit mablag'lari 7,4 foizni tashkil etgan.

Albata, moliyalashtirish tarkibida o'z mablag'larining yuqori ulushga ega ekanligi mahalliy investorlar hisoblangan yosh tadbirkorlik sub'ektlarining investitsion faolligidan dalolatdir. Ammo, ahamiyatlisi, va o'tkazilgan so'rovnomalardan aniqlanishicha, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari ishtirokchilariga maxsus iqtisodiy zonalar yoki kichik sanoat zonalari ishtirokchilariga investitsion majburiyatlar evaziga beriladigan imtiyozli rejim qo'llanilmasligi ma'lum bo'ldi. Bu borada, tadqiqot ob'ekti bo'lgan Namangan viloyatida tashkil etilgan yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari ishtirokchilar (investorlar) bilan o'tkazilgan intervyu va so'rovnoma natijalariga ko'ra, ularga soliq, bojxona va boshqa ma'muriy "imtiyozlar paketi"ning taqdim etilishi kelgusida ushbu sanoat zonalari investitsion faolligini oshirishga xizmat qilishini alohida qayd etishgan.



- Имтиёзлар берилса инвестицион фооллик ошади
- Имтиёлар берилса экспорт фоалияти ва реинвестицион фооллик ошади
- Имтиёзлар берилса кўшимча иш ўринлари яратилади
- Имтиёзлар берилса инвестицион фооллика таъсир қилмайди

1-rasm: "Imtiyozlar sanoat zonalari investitsion faolligiga ta'sir qiladimi?" nomli so'rovnama natijalari [7]

"Imtiyozlar sanoat zonalari investitsion faolligiga ta'sir qiladimi?" nomli so'rovnama natijalariga ko'ra, imtiyozlarning investitsion faollikka ta'siri borligini ta'kidlagan rezidentlar


70 foizdan yuqori, mazkur imtiyozlarning eksport faoliyatiga ijobiy ta'sirini ta'kidlagan rezidentlar – 13 foiz, imtiyozlar berilishining yangi ish o'rinnarini yaratishga ta'sirini ta'kidlagan ishtirokchilar – 6 foiz, imtiyozlarning investitsion faollikka ta'sir etmasligini bildiganlar – 9 foizni tashkil etgan. Xulosa va takliflar. Umuman olganda, maxsus iqtisodiy zonalar investitsion faolligi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlар, shu jumladan soliq va bojxona, valyuta va boshqa turdagи imtiyozlarni qo'llashda "tartibga solish gilotinasi" usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Iqtisodiy o'sishdagi to'siqlarni bartaraf etish va investitsiyalarni jalb qilish maqsadida amaliyotga joriy etilgan "tartibga solish gilotinasi" prinsipi 1980 yilda Shvetsiyada ishlab chiqilgan. Ushbu usulining asosiy g'oyasi esa qisqa muddatlarda amaldagi normativ-huquqiy bazani xatlovdan o'tkazish va uning natijasida qonunchilikka zid bo'lgan (bir biriga zid bo'lgan), iqtisodiy samarasiz, amalda o'z axamiyatini yo'qotgan, amalga oshirilishi otrtiqcha xarajatlar talab qiladigan normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish xisoblanadi.

"Tartibga solish gilotinasi" usulini amalga oshirish maqsadlari:

- investitsiyalarni jalb etish borasidagi ko'p sonli va samarasiz tartib-qoidalarni tezda bartaraf etish uchun siyosiy va ma'muriy xarajatlarni imkon qadar kamaytirish;
- investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun faol investitsion muhitni ta'minlash;
- investitsion munosabatlarni tartibga solish bo'yicha "xavfsiz" reestrni o'rnatish orqali kelgusida sifat nazorati va huquqni qo'llash uchun barqaror investitsion muhitni ta'minlash jarayoni modelini ishlab chiqish;
- institutsiional infratuzilmani yaratish, shu jumladan vazirliklararo muvofiqlashtirish va hamkorlik mexanizmini ishlab chiqish, islohotlar mexanizmini kuchaytirish va tartibga solish islohotlarini samarali amalga oshirish maqsadida tartibga solish tahlilini o'tkazish imkoniyatini ta'minlash.

"Tartibga solish gilotinasi" qanday amalga oshiriladi? Ushbu usulning bugungi kundagi talqini Jacobs, Cardowa & Associates [8] tomonidan Shvetsiya va Janubiy Koreya davlatlari tajribasiga asoslangan xolda ishlab chiqilgan. "Tartibga solish gilotinasi" usuli quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. Hukumat (islohot qilish vazifasi yuklangan boshqa organ, ishchi guruh) "tartibga soluvchi gilotina" maqsadini belgilaydi.
2. Mas'ul organ (ishchi guruh) hukumat talabiga binoan belgilangan muddatda "gilotina" mavzusiga oid barcha normativ hujjatlar ro'yhatini taqdim etadi. Shu bilan birga, har bir normativ hujjatda ushbu aktning zaruriyati, qonuniyligi baholanadigan mantiqiy asoslangan bo'lishi kerak.



2-rasm: Maxsus iqtisodiy zonalarga imtiyozlarni qo'llash borasida "tartibga solish gilotinasi" usulidan foydalanish mexanizmi

Manba: Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Maxsus iqtisodiy zonalar uchun taqdim etilgan soliq, bojxona, valyuta va boshqa turdagи moliyaviy va nomoliyaviy imtiyozlar, ularning samaradorligi uch bosqichda quyidagi sub'ektlar tomonidan o'rganiladi:

- normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiquvchilar tomonidan;
  - tayinlangan mustaqil ekspertlar guruhi tomonidan;
  - investorlar yoki tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan.
3. Mazkur o'rnatilgan filtrdan o'tmagan normativ-huquqiy hujjatlardagi tartib-qoidalarni bekor qilish yoki soddalashtirish jarayoni boshlanadi.
  4. "Tartibga solish gilotinasi" nattijasida investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan yangi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinadi, amaldagi hujjatlarga o'zgartish va qo'shgingchalalar kiritilgan holda rasmiy normativ-huquqiy hujjatlar reestriga kiritiladi [3].

Hozirgi kunga qadar mazkur usul Vietnam, Keniya, Xorvatiya, Janubiy Koreya va boshqa bir necha davlatlarda normativ-huquqiy hujjatlar, asosan, qonuniylik, biznes uchun foydali yoki foydali emasligi, dolzarblik, xarajatlar mezonlari bo'yicha amalga oshirilgan. Shuningdek, yuqorida davlatlarda "tartibga solish gilotinasi" usulini to'liq amalga oshirish ikki oydan ikki yilgacha muddat talab qilib, natijada esa YAIM xajmi sezilarli darajada oshgan va qo'shimcha ish o'rirlari soni ko'paygan [9].

Bu borada, Janubiy Koreya 1997-yilgi Osiyo moliyaviy inqirozidan keyin "tartibga solish gilotinasi" usulidan foydalanish orqali 11 oy ichida investitsion muhitga bevosita ta'sir etuvchi 6000 ta ma'muriy tartib-qoidalari, samarasiz imtiyozlar (soliq va bojxona) bekor qilishi nattijasida mazkur davlat iqtisodiyotiga 27 mlrd. doll. miqdorida qo'shimcha xorijiy investitsiyalar jalb etildi. Shuningdek, "tartibga solish gilotinasi" usuli Janubiy Koreya investitsion muhitini yaxshilash orqali ko'p yillik iqtisodiy o'sish uchun katalizator vazifasini bajarmoqda [3].

Mazkur xorijiy davlat ilg'or tajribasidan kelib chiqqan holda "tartibga solish gilotinasi" usulidan foydanib, maxsus iqtisodiy zonalar, shu jumladan, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari ishtirokchilari imtiyozli holatiga salbiy ta'sir etuvchi iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari uchun berilgan samarasiz imtiyozlarni (soliq, bojxona, boshqa ma'muriy huquq va nisbiy ustunliklar) o'rganib chiqish va bekor qilish taklif etiladi. Ushbu holatda maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari uchun imtiyozlar saqlab qolinadi. Faqatgina ushbu zonalar tashqarisida amal qiluvchi imtiyozlar "tartibga solish gilotinasi"da nazarda tutiladi.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Alicia Bárcena, Laura López, Martine Dirven, Susana Malchik. Foreign Investment in Latin America and the Caribbean, 2008 [https://repositorio.cepal.org/bitstream/handle/11362/1139/1/S0900391\\_en.pdf](https://repositorio.cepal.org/bitstream/handle/11362/1139/1/S0900391_en.pdf).
2. Баронов В.И., Костюнина Г.М. Свободные экономические и офшорные зоны (экономико-правовые вопросы зарубежной и российской практики): Учебное пособие. –Москва :Магистр, НИЦ ИНФРА-М, 2016. – 560 с.
3. Александров О.В. "Регуляторные гильотины": международный опыт устранения препятствий для бизнеса и инвестирования. Торговая политика. Trade policy / 2019. № 1/17. ISSN 2499-9415. doi:10.17323/2499-9415-2019-1-17-107-119
4. Michael Engman, Osamu Onodera, Enrico Pinali, Export Processing Zones: Past and Future Role in Trade and Development, OECD Trade Policy Working Paper No. 53, TD//TC/WP(2006)39/FINAL, p. 10.
5. Karimqulov J. Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari. 08.00.07 – "Moliya, pul muomalasi va kredit" Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya. –Toshkent – 2019. 244 b.
6. Isaev Q.A. Xalqaro iqtisodiyot. Darslik. –T.: "Ma'naviyat", 2021. 126-b.
7. Namangan viloyatida tashkil etilgan yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari ishtirokchilari (investorlar) bilan o'tkazilgan intervyu va so'rovnama natijalariga ko'ra muallif tomonidan tuzilgan.
8. <http://regulatoryreform.com/>
9. <https://huquqiyortal.uz/news/2019/10/29/adliya-vazirligi-tartibga-solish-gilotinasi-metodini-ko'llashni-rejalash-tirmoqda/126>.
10. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi – UNCTAD (United Nations Conference on Trade and Development) "World Investment Report" hisoboti. Manba: <https://worldinvestmentreport.unctad.org/world-investment-report-2019/charter-4-special-economic-zones>.
11. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma'lumotlari.
12. Namangan shahri, Davlatobod tumani hokimligi ma'lumotlari.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

